

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MANSUROV SOBIR HAMROYEVICH**

**MULLA BO‘RI DILAFGOR ASARLARINING MANBASI VA  
MATNIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
Philological Sciences**

**Оглавление автореферата диссертации философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Mansurov Sobir Hamroyevich**

Mulla Bo‘ri Dilafgor asarlarining manbasi va matniy tadqiqi ..... 3

**Mansurov Sobir Hamroyevich**

The Sources and Textual Study of the Works of Mulla Bori Dilafgor ..... 25

**Мансуров Собир Хамроевич**

Источники и текстологическое исследование произведений Муллы Бори  
Дилафгора ..... 49

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

List of published works

Список опубликованных работ ..... 56

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR  
BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**MANSUROV SOBIR HAMROYEVICH**

**MULLA BO‘RI DILAFGOR ASARLARINING MANBASI VA  
MATNIY TADQIQI**

10.00.10 – Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) disertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1895 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus, (rezyume) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz)) va "ZiyoNET" Axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan

**Ilmiy rahbar:**

**Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich**  
filologiya fanlari doktori, akademik.

**Rasmiy opponentlar:**

**Jabborov Nurboy Abdulhakimovich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Yusuf Tursunov**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**O'zRFA O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti**

Dissertatsiya himoyasi Alisher Navoiy Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.41.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "6" 04 soat 14<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz); e-mail: [monitoring@navoiy-uni.uz](mailto:monitoring@navoiy-uni.uz)).

Dissertatsiya bilan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (410 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103. Tel.: (99871) 281-42-44; faks: (99871) 281-42-44, [www.tsuull.uz](http://www.tsuull.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "13" 03 kuni tarqatildi.

(2026-yil "13" 03 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi)



**S.Ashirboyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, filol.f.d., professor

**Q.U.Pardayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**Abdulqayrov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyotshunosligida oxirgi yillarda o'tmish islom olamiga mansub muayyan ijodkorlarning adabiy merosini chuqur o'rganish, ularning g'oyaviy qarashlarini kuzatish, birlamchi qo'lyozma materiallar asosida tadqiq etishga katta e'tibor berilmoqda. Zotan, milliy adabiyotlarning Sharq adabiyoti kesimida o'ziga xos salohiyatini o'rganish turli xalqlar va madaniyatlar o'rtasidagi adabiy ta'sir masalalarini aniqlash nuqtayi nazaridan muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Qo'lyozma manbalarni aniqlash, tahlil va tadqiq etish nafaqat o'tmish, balki tarixning so'nggi yillardagi noma'lum sahifalarini yorituvchi qimmatli yodgorlik sifatida ham matnshunoslik va manbashunoslik sohasi oldiga dolzarb vazifalarni qo'yadi.

Dunyo ilmiy jamoatchiligi ijodkor adabiy-estetik tafakkuri, asarlarining g'oyaviy sarchashmalari, ularning matniy-qiyosiy va tekstologik tadqiqini amalga oshirish ota-bobolar qoldirgan noyob qo'lyozma manbalarning keng miqyosdagi tadqiqi bugungi o'zbek matnshunosligi va manbashunosligining xalqaro doiralarda keng ko'lamlil izlanishlarga asos bo'lishini ko'rsatmoqda. Mamlakatimizda keyingi yillarda adabiy merosi yetarli darajada o'rganilmay kelayotgan ijodkorlar shaxsiyati va asarlarini tadqiq etish, ular yuzasidan xulosalar bildirish, o'z navbatida, ijodkorlar asarlarining o'zbek adabiyoti tarixida tutgan o'rnini ko'rsatishga oid adabiyotshunoslik, xususan, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo'nalishidagi tadqiqotlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. So'nggi yillarda bu sohadagi tadqiqotlarning uzviy bir qismi sifatida XIX asrning oxiri – XX asrning birinchi choragida milliy uyg'onish g'oyalari, millat ozodligi va ma'rifati, shuningdek, sobiq tuzum davrida imkoni bo'lmagan diniy-ma'rifiy mavzularni kuylagan ijodkorlar merosini tadqiq etishga qaratilgan ilmiy ishlarning ko'lami oshganini qayd etish zarur. O'tgan asrda yashab ijod qilgan Mulla Bo'ri Dilafgorni ham ana shunday merosi to'liq o'rganilmagan ijodkorlar sirasiga qo'shish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF–4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi” Farmonlari, 2017-yil 24-maydagi PQ–2995-son “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Dissertatsiya respublika fan va

texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dilafgor yashagan davrga aloqador mintaqaviy adabiy muhitlarga doir ma’lunmotlar Po‘lotjon Domulla Qayyumiy, Mo‘minjon Toshqin, Sadriddin Ayniy, O. Sharafiddinov, A.Qayumov, G‘.Karimov, A.Abdug‘afurov, M.Zokirov, N.Karimov, B.Qosimov, Sh.Sirojiddiov, A.Jalolov, O.Jo‘raboyev, M.Tojiboyeva, O.Oltinbek, O.Barziyev, A.Mamatqulov kabi olimlarning tadqiqotlarida uchraydi<sup>1</sup>.

Biroq, Dilafgor hayoti va ijodi bo‘yicha maxsus tadqiqot mavjud emas. Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda shoir ijodining ayrim jihatlari xususida fikr bildirilib, Dilafgor adabiy merosini monografik planda tadqiq etish maqsad qilinmagan. Qolaversa, shoir Sharq musulmon xalqlari adabiyotidagi sayyor syujet asosida yozgan “Qissai Zufunun” asari shu paytgacha tadqiq etilmagan. Ana shunga ko‘ra, mazkur dissertatsion ish shu paytgacha amalga oshirilgan tadqiqotlardan farq qiladi.

Shoir ijodi asosan “Gulshani Dilafgor” nomli she’riy to‘plam<sup>2</sup>, “Qissai Zufunun”<sup>3</sup> va “Marsiyalar daftari”<sup>4</sup> kabi asarlar orqali bizga ma’lum.

<sup>1</sup> Пўлатжон Домулла Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. II жилд. – Тошкент: ЎзР ФА Қўлғезмалар институти тахририй нашриёт бўлими, 1998. – Б. 289–290; Садриддин Айний. Намунаи адабиёти тожик. – М., 1926. – С. 195–197; Мўминжон Муҳаммаджонов Тошқин. “Тошкент шоирларининг таржимаи ҳоллари” тазкираси. Қўлғезма. Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи фонди. II дафтар. – Б. 91–125; Шарафиддинов О. Ўзбек адабиёти тарихи XV–XIX асрлар. Хрестоматия. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – Б. 424–426; Қайюмов А. Қўкон адабий муҳити (XVIII–XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1961. – 360 б; Абдуғафуров А. Зокиржон Фуркат. – Тошкент: Фан, 1977; Каримов Г.К. Узбекский поэт-демократ Муками и литература его времени. Автореф. дисс. д-ра филол. наук. –Ташкент, 1962. – С. 79; Зокиров М. Хислат / Тошкент оқшоми. 1967, 15 март. № 62 (217); Тирик сатрлар: Танланган шеърлар (Тўпловчи: М. Зокиров; муҳаррир О.Шарафиддинов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1968. – Б. 100; Жалолов А. Хислат // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1968. №1. – Б. 35–36; Хислат. Ғазаллар (Тузувчи ва сўзбоши муаллифи: А. Жалолов). – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1971. – Б. 96; яна шу муаллиф: Озодликни улуғлаб. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 62; Каримов Ғ. Ўзбек адабиёти тарихи. Учинчи китоб. – Тошкент: Ўқитувчи, 1966. – 308 б; Сирожиддинов Ш. XIX аср Каттақўрғон шоирлари ижодида Алишер Навоий анъаналари. – Филол. фан. номз. дисс. автореф. – Самарқанд, 1991; Қосимов Б. Миллий уйғониш: Жасорат, маърифат, фидойилик. – Тошкент: Маънавият, 2002. – Б. 302–307; *shu muallif*. Уйғонган миллат маърифати (Тўпловчилар: С. Аҳмедов, Р. Қўчқоров) – Тошкент: Маънавият, 2011. – 320 б.; Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. 1-китоб. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – Б. 62–75; *shu muallif*. Абдулла Қодирий ва Тошкент адабий муҳити / Ўзбекистон адабиёти ва санъати. – Тошкент, 2013. № 43–44; Жабборов Н. Фуркатнинг хориждаги ҳаёти ва ижодий мероси: манбалари, матний тадқиқи, поэтикаси: Филол. фан д-ри... дисс. – Тошкент, 2004. – 280 б; Тожибоева М. Юсуф Сарёмий ҳаёти ва ижоди. – Тошкент: Мовароуннаҳр, 2005. – Б. 13–14; Жўрабоев О. Ҳазиний Хўқандий ҳаёти ва ижодий мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2003. – 156 б; Пардаев Қ. Муқимий шеърятининг матн тарихи, тахрири ва талқини: Филол фан. д-ри ... дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 310; Барзиев О. Х. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари ўзбек шеърятини давр муаммолари ва лирик қаҳрамон. Филол. фан. б. фалс. док. (PhD) дисс... авторефер. – Фарғона, 2020. – Б. 19; Маматқулов А. Пискент тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 40–44; *shu muallif*. Пискент тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 104–116; Пискент баёзи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – Б. 27–35.

<sup>2</sup> Дилафгор. Гулшани Дилафгор. –Тошкент: Литография Яковлева, 1914.

<sup>3</sup> “Qissai Zufunun”ning ikkita qo‘lyozma nusxasi 4868 va 11940-raqamlari bilan O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida saqlanadi.

<sup>4</sup> Ushbu asar muallif tomonidan 12 varaqli daftarga ko‘chirilgan bo‘lib, yaqin vaqtlargacha qizi Sharifa Shermuhammedova qo‘lida saqlangan. A.Mamatqulov va boshqalar tomonidan “Gulshani Dilafgor” matni bilan birga 2011-yilda joriy kirill alifbosida nashr etilgan. Afsuski, Sharifa Shermuhammedova vafotidan (2024-yil) keyin daftar yo‘qolgan.

Shoir haqidagi ilk ma'lumotlar Po'latjon domulla Qayyumiyning "Tazkirai Qayyumiy" asarida uchraydi<sup>5</sup>. O'tgan asrda adabiyotshunos Olim Sharafiddinov tomonidan tuzilgan "O'zbek adabiyoti tarixi. XV–XIX asrlar" majmuasida Dilafgor lirik asarlaridan namunalar keltirilgan<sup>6</sup>. Shuningdek, shoir she'rlaridan namunalar Abdurashid Abdug'afurov tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek adabiyoti" xrestomatiyasiga<sup>7</sup>, 1982-yili nashr qilingan "Asrlar nidosi" kitobiga kiritilgan. Shuningdek, shoirning "ustina" radifli bitta g'azali rus tiliga tarjimai bilan "Shashmaqom"ning beshinchi jildiga kiritilgan<sup>8</sup>. Ergashali Shodiyevning "O'zbek-tojik adabiy aloqalari tarixidan" nomli tadqiqotida Dilafgor ijodiga murojaat qilinib, shoir she'rlari tahlil etilgan<sup>9</sup>. "Gulshani Dilafgor" nomi bilan shoirning 1914-yilda toshbosma shaklida nashr qilingan she'rlari hamda "Marsiyalar daftari" bir jildda 2011-yilda nashr qilingan. Nashr so'zboshisida shoir hayoti va ijodiy merosining ayrim jihatlari yoritilgan<sup>10</sup>. Keyinchalik ushbu nashrdan olingan she'rlar "Piskent tarixidan lavhalar" kitobi hamda "Piskent bayozi"ga ham kiritilgan<sup>11</sup>. O.Barziyevning dissertatsiyasida ham shoir ijodi yuzasidan mulohazalar bildirilgan<sup>12</sup>.

**Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti ilmiy-tadqiqot rejasiga muvofiq "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini o'rganishning konseptual muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Dilafgor ilmiy biografiyasi va adabiy merosiga oid birlamchi manbalarni aniqlash, asarlarini qo'lyozma, toshbosma va nashr nusxalari matni bilan qiyosiy tadqiq etish, shoirning o'zbek adabiyotida tutgan o'rnini ilmiy asoslashdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

O'zbekiston Respublikasining turli fondlari va adib avlodlari qo'lida saqlanayotgan Dilafgor tarjimayi holiga oid manbalarni aniqlash, ular asosida shoir ilmiy biografiyasini tiklash;

shoir she'riyati qo'lyozma va toshbosma nusxalarining matniy-qiyosini amalga oshirish, natijada, birlamchi manbalar va nashr nusxalaridagi tafovutlarni aniqlash;

<sup>5</sup> Пулотжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. – Б. 379.

<sup>6</sup> Шарафиддинов О. Ўзбек адабиёти тарихи XV–XIX асрлар. Хрестоматия. – Тошкент: Ўздавнашр, 1945. – Б. 424–426.

<sup>7</sup> Ўзбек адабиёти. IV жилд. I китоб. Нашрга тайёрловчи: Каримов Ғ. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1960. – Б. 303–313.

<sup>8</sup> Шашмақом. V. Сегоҳ. Ёзиб олувчи Юнус Ражабий. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 182.

<sup>9</sup> Шодиев Э. Ўзбек-тожик адабий алоқалари тарихидан. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1973. – Б. 78–79.

<sup>10</sup> Дилафгор. Гулшани Дилафгор. Нашрга тайёрловчи: Маматқулов А. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2011. – В. 3–4.

<sup>11</sup> Маматқулов А. Пискент тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 40–44; Shu muallif. Пискент тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2017. – Б. 104–116; Пискент баёзи. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2013. – Б. 27–35.

<sup>12</sup> Барзиев О. Х. XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари ўзбек шеърлятида давр муаммолари ва лирик қаҳрамон. Филол. фан. б. фалс. док... (PhD) дисс. автореф. – Фарғона, 2020. – Б. 19.

ijodkor qalamiga mansub jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan lirik asarlarni aniqlash, shoirning "Qissai Zufunun", "Marsiyalar daftari" asarlari manbalari matnini qiyosiy tahlil qilish, mazkur asarlarning tuzilishi va o'ziga xosligini ko'rsatish;

shoir she'rlarining mavzu ko'lamini tasniflash, ular badiiyatini ta'minlagan turli badiiy tasviriy vositalardan foydalanish mahoratini ilmiy asoslash.

**Tadqiqotning obyektini** Dilafgor tarjimayi holiga oid manbalar hamda "Gulshani Dilafgor", "Marsiyalar daftari" va "Qissai Zufunun" asarlari tashkil etadi.

**Tadqiqotning predmetini** Dilafgor ilmiy biografiyasiga oid manbalar tahlili, asarlarining qo'lyozma, toshbosma va nashr nusxalari matni bilan qiyosiy tadqiqi, ularning matniy tafovutlari tahlili tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, biografik va germeneytik tadqiq usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining turli fondlari va adib avlodlari qo'lida saqlanayotgan Dilafgor tarjimayi holiga oid manbalar aniqlanib, shoir tavalludi, ta'limi, oilaviy ahvoli, davradoshlari haqida ma'lumotlar oydinlashtirilib, shoir ilmiy biografiyasi tiklangan;

ijodkor lirik asarlari qo'lyozma, toshbosma hamda nashr nusxalarining matniy qiyosi natijasida matniy tafovutlar aniqlanib, shoirning hanuz ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan 10 dan ortiq she'rlari aniqlangan va ilmiy istifodaga olib kirilgan;

shoirning "Qissai Zufunun", "Marsiyalar daftari" asarlari birlamchi manbalar asosida ilk marta ilmiy iste'molga olib kirilgan va manbalari matnining qiyosiy tahlili natijasida mazkur asarlarning tuzilishi va ilmiy qiymati ashyoviy misollar asosida dalillangan;

Dilafgor she'rlarining hajmi, janrlari, mavzu ko'lami aniqlanib, ular badiiyatini ta'minlagan turli badiiy tasviriy vositalardan shoirning foydalanish mahorati ilmiy asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

shoir tarjimayi holiga oid manbalar aniqlanib, tavalludi, ta'limi, oilaviy ahvoli, davradoshlari haqida ma'lumotlar turli fondlar va avlodlari qo'lida saqlanayotgan manbalar asosida ochiqanib, Dilafgor ilmiy biografiyasi tiklangan;

Respublika fondlari, kutubxona va shaxsiy arxivlardan shoir merosiga doir manbalar jamlanib, ularning monografik tavsifi amalga oshirilgan va she'rlarining hajmi, janrlari, mavzu ko'lami aniqlanib, shoirning badiiy mahorati ilmiy dalillangan.

Dilafgor lirik asarlari qo'lyozma va toshbosma hamda nashr nusxalarining matniy qiyosi natijasida shoirning hozirgacha ilmiy jamoatchilikka ma'lum bo'lmagan 10 dan ortiq she'rlari aniqlangan va ilmiy istifodaga olib kirilgan;

shoirning “Qissai Zufunun”, “Marsiyalar daftari” asarlari birlamchi manbalar asosida ilk marta ilmiy istifodaga olib kirilgan va mavjud manbalarning nusxalari asosida “Qissai Zufunun” tabdili amalga oshirilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** dissertatsiyada birlamchi – qo‘lyozma va toshbosma manbalar bilan ishlangani, matnshunoslik nazariyasiga oid adabiyotlardan foydalanilgani, muammoning aniq qo‘yilgani, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilgani, natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani, o‘zbek adabiyotiga yana bir shoirning olib kirilishi, asarlari matni nashrga tayyorlanib, fanga olib kirilgani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy xulosalar va nazariy umumlashma fikrlar XX asr birinchi yarmida yashab ijod etgan shoirlar ijodiy merosini o‘rganishda nazariy manba vazifasini bajarishi, ular haqida ilmiy xulosalar chiqarishda foydalanish, matnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishida ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishda, mumtoz o‘zbek adabiyoti tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa, o‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishda, monografiyalar, maktab o‘quvchilari uchun uslubiy qo‘llanma, Oliy o‘quv yurtida “O‘zbek adabiyoti tarixi”, “O‘zbek mumtoz adabiyoti”, “Matnshunoslik asoslari”, “Matnshunoslik nazariyasi” fanlaridan o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Mulla Bo‘ri Dilafgor tarjimayi holi, devoni, “Marsiyalar daftari” va “Qissai Zufunun” asarlari tadqiqi bo‘yicha olingan natijalar asosida:

shoir tarjimayi holi, ijodkor lirik asarlari qo‘lyozma va toshbosma hamda nashr nusxalarining matniy qiyosi chiqarilgan ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida

2021–2023-yillarda bajarilgan PF-201912258 raqamli “O‘zbek adabiyotining ko‘p tilli (o‘zbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2025-yil 1-dekabrda 04/1-5748-son ma‘lumotnomasi). Natijada, Dilafgor biografiyasi va asarlarining manbasini aniqlash va matniy tadqiq etish bilan bog‘liq yangi faktlardan elektron platforma materiallarini tayyorlashda foydalanilgan;

Dilafgor she‘rlarining hajmi, janrlari, mavzu ko‘lami va badiiyatini ta‘minlagan turli badiiy tasviriy vositalardan mahorat bilan foydalanganligiga oid ilmiy asoslangan nazariy xulosalardan 2022–2023-yillarga mo‘ljallangan IL-52 tur-21091433. O‘zbek realiyalariga oid maqolalar bazasi platformasini yaratish (Wikipedia elektron ensiklopediyasi mezonlari asosida) mavzusidagi loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 1-dekabrda 04/1-5750-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Dilafgor she‘rlarining hajmi, janrlari, mavzu

ko‘lami va badiiyatiga oid ilmiy asoslangan nazariy xulosalardan elektron platforma yaratishda foydalanilgan;

shoirning “Qissai Zufunun”, “Marsiyalar daftari” asarlari birlamchi manbalar asosida ilk marta ilmiy istifodaga olib kirilgani hamda manbalari matnining qiyosiy tahlili natijasida asarlarning tuzilishi va ilmiy qiymatiga oid yangi ilmiy ma‘lumot va xulosalardan Davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasidagi 2021–2023-yillarga mo‘ljallangan IL-402104474 raqamli “Bolalar adabiyoti.uz” elektron platforma va uning mobil ilovasini yaratish nomli innovatsion loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2025-yil 1-dekabrdagi 04/1-5749-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada “Qissai Zufunun”, “Marsiyalar daftari” asarlarining tuzilishi va ilmiy qiymatiga oid ilmiy materiallar bilan elektron platforma materiallari boyitilgan;

Dilafgor she‘rlarining hajmi, janrlari, mavzu ko‘lami aniqlanib, ular badiiyatini ta‘minlagan turli xil badiiy tasviriy vositalardan shoirning foydalanish mahorati ilmiy asoslanganiga oid ilmiy xulosalardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasining “Mahalla” telekanali ko‘rsatuvining ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (“Mahalla” teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 11-noyabrdagi 02-16-274-sonli ma‘lumotnomasi). Natijada mazkur ko‘rsatuvlar orqali Dilafgor she‘rlarining hajmi, janrlari, mavzu ko‘lami, badiiyati xususida yangi ilmiy ma‘lumotlar ko‘rsatuv ilmiy saviyasini oshirgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Dissertatsiya natijalari 9 ta ilmiy-amaliy anjuman, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Olit ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, 2 tasi xorijiy jurnalda e‘lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 130 sahifadan iborat.

## DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obykti, predmeti, fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, ishonchliligi, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiyasi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

**“Dilafgor biografiyasi, adabiy muhiti va ijodiy merosi manbalari”** deb nomlangan birinchi bobining 1.1. paragrafida **“Dilafgor shaxsiyati va**

**yashagan davriga oid tadqiqotlar tahlili**” o‘rganilgan. Po‘latjon Qayumiy “Tazkirayi Qayyumiyyda shoir haqida: “Bu kishi Toshkent shoirlaridan bo‘lib, Piskand qasabasidandur. Nomi Mulla Abdulboriy bo‘lib, nima kasbda ekani bilinmaydi. Andijon shahridan turib Vataniga xat yozganidan Farg‘ona vodiysiga kelib yurgani, savdogar bo‘lgani ehtimol tutiladur. 1914-yilda qirq sakkiz betli devonchasi Toshkentda o‘z xarajoti ila toshbosmada bosilib chiqdi<sup>13</sup>”, – deydi va uning “Salomnoma” turkumidagi lirik asaridan bir band keltiradi. Shoir biografiyasi haqida “Asrlar nidosi” to‘plamida shoirning ismini Abdulboriy tarzida keltiradi. “Dilafgor XIX asrning ikkinchi yarmi, XX asrning birinchi yarmida Toshkentga yaqin Piskent shahrida tug‘ilib, yashab, o‘z davrining maktab va madrasasida tahsil olib, jo‘shqin iste‘dodi bilan zamondosh muxlislarning ehtiromiga sazovor bo‘lgan shoirlardandir<sup>14</sup>. Shuningdek, to‘plamda Dilafgorning yoshligi, tahsili va merosi yuzasidan ayrim ma‘lumotlar berib o‘tiladi.

“Gulshani Dilafgor” kitobining birinchi sahifasida shoir o‘z ismini “Mulla Abdulboriy” deb keltirsa, aynan shu kitobning so‘ngida “Kitobfurush mullo Bo‘riboy Shermuhammad o‘g‘li” tarzida tanishtirgan.

Dilafgor hayoti va ijodi to‘g‘risida batafsilroq ma‘lumotlar Mo‘minjon Muhammadjon o‘g‘li Toshqinning “Toshkent shoirlari” tazkirasida uchraydi. Tazkirada ijodkor haqida quyidagi ma‘lumotga duch kelamiz: “Shoir Dilafgor (Toshkent-piskentlik)” Bo‘ri Sher hoji o‘g‘li – Dilafgor 1882nchi yilda Toshkent oblast, Piskent rayonida o‘rta dehqon oilasida tug‘ildi. Hozir (1948nchi yilda) 66 yoshda”<sup>15</sup>.

Dissertatsiyada shoirning nomi atrofidagi noaniqliklar tuzatilib, uning nomi Bo‘ri Sher hoji o‘g‘li – Dilafgor ekani, 1949nchi yilda Piskent tumanida vafot etgani va qabri mazkur tuman hududidagi “Sarimazor” qabristonida joylashgani aniqlangan. A.Mamatqulov tomonidan nashrga tayyorlangan “Gulshani Dilafgor” asarida uning zamondoshlari haqidagi ayrim ma‘lumotlari dissertatsiyada Dilafgorning avtobiografik g‘azallari tahlili orqali to‘ldirilgan.

Masalan, “Az jonibi Dilafgor qasida bajonibi Xislat eshon” sarlavhasi ostida o‘zbek mumtoz adabiyotining so‘nggi namoyandalaridan biri, shoir va tarjimon Xislat – Haybatullaxo‘ja Orifxo‘ja o‘g‘liga (1880–1945) bag‘ishlab yozgan o‘n olti baytdan iborat she‘riy maktubida ham o‘zi bilan hammaslak bo‘lgan bir qator Toshkent adabiy muhiti ijodkorlarining nomlarini qayd qilib o‘tganini ko‘rish mumkin. Chunonchi quyidagi baytlarda:

*Xislato, majmu‘i yor-u oshnolarni so‘rang,*

*Ko‘z tanish, xurdu kalon – ahli salolarni so‘rang.*

*Barchadin qizg‘a qarib ahbobimiz Mullo Kamiy,*

*Bormular eson-omon, xush bovafofarni so‘rang, – desa, yana*

bir bandda o‘sha davrning taniqli qo‘shiqchilari nomlari ham keltirilgan:

<sup>13</sup> Пулотжон Домулло Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. 2-жилд. – Тошкент, 1998. – Б. 379.

<sup>14</sup> Мурудий Т. Асрлар нидоси. – Б. 162.

<sup>15</sup> Дилафгор. Гулшани Дилафгор. – Б. 3–4.

*Shohjalil-u Shohbarotga aytingiz bizdin duo,  
To 'ychixon otashnafas, bulbulnavolarni so 'rang.*

She'r matnida kotib Abdulhamid nomi bilan birga shoir, xattot va tarjimon Sirojiddin Maxdum Mirzohidoxund o'g'li Sidqiy Xondayliqiy (1884–1934)ning nomi qayd etilgani Dilafgor adabiy davrasi haqida ham muayyan xulosalar beradi. Kotib Abdulhamid Dilafgorning “Gulshani Dilafgor”ini ko'chirgan bo'lib, uning nomi ushbu she'rga bejiz kiritilmagan:

*Kotib Abdulhamid birlan Siroj Maxdum degan,  
Husnixat avsofida mashqi bajolarni so 'rang.*

Keyingi baytda yana bir taniqli toshkentlik shoir Miskin – Mullo Qo'shoq G'ulomxalil Toshmuhammad o'g'li (1880–1937)ga bo'lgan munosabatini bunday bildiradi:

*Ul Baland masjid tegida lafkador Mullo Qo'shoq,  
Erdilar bizga muhib, jonfidolarni so 'rang.*

Sh.Nuriddinov Mullo Qo'shoq – Miskin adabiy merosi tadqiqiga bag'ishlangan dissertatsiyasida yuqoridagi baytni keltirib, Dilafgor Miskinning “Arzimas” radifli g'azaliga muxammas bog'laganini ham qayd etadi<sup>16</sup>.

Piskent Toshkentga yaqin bo'lgani bois qadimdan ikki shahar ijodkorlari o'rtasida ijodiy muloqot va hamkorlik izchil rivojlanib kelgan. Bu an'ana Dilafgor yashagan davrga yaqin paytlarda ham davom etgan va shoirning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Jumladan, Akmal Toshkandiy (Sayyid Akmal) 1834/1835–1883-yillarda yashab ijod qilgan o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan ma'rifatparvar vakillaridan biridir. U Piskentda yirik tasavvuf shayxlaridan biri Nizomiddin Piskandiyning oilasida dunyoga kelgan.

Mo'minjon Toshqinning yozishicha, shoir: “O'z qishlog'ida Abdurrashid nomli mudarrisda “Sharhi mullo Jomiy”gacha dars o'qidi. So'ngra Qo'qonga borib, “Sultonmurodxon” madrasasida mulla Kamol nomlik mudarrisda “Sharhi viqoya”dan dars o'qudi. She'r va adabiyot ustodi yo'q. Qoriy, Umarxon va Alisher Navoiy devonlarini ko'p o'qub, shulardan ilhom olib, she'r yoza boshlagan. Muqimiy, Furqat singari san'atkor shoir emas. Kamiy, Xislat, Miskin kabi shoirlar bilan ko'p suhbat qilgan. Dadamuhammad nomlik sahhofdan muqovachilikni o'rganib, ancha vaqt muqova hunari bilan mashg'ul bo'lgan. Shu orada sahhoflik (kitobfurushlik) ham qilgan. “Toshkent shoirlari” tazkirasida Dilafgorning o'z kitob do'konida kitob ham sotishi biz uchun qimmatli ma'lumotlardan biri hisoblanadi. Ijodkorning manzili Toshkent oblast, Piskent rayon, Piskent qishloq, Komsomol ko'cha, 150-hovli, deya keltiriladi. Shundan so'ng manbada Dilafgor to'g'risida quyidagi ikkinchi manba aks ettiriladi. “Shoir Dilafgor 1914nchi yilda (revolyutsiyadan 3 yil burun) “Gulshani Dilafgor” nomlik devonini bosmaxonada toshbosma bilan 48 betlik qilib, o'z xarajati bilan bosdirdi. Bu she'r to'plamining xushxat kotibi

<sup>16</sup> Нуриддинов Ш. Б. Мулла Қўшоқ Мискин Ҳаёти ва унинг адабий мероси. Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2011. – Б. 13.

“Kotib” taxalluslik, “Jalolobod” shaharlik Abdulhamid rassom, fo‘to‘chi bo‘lib, buni 1313-hijriy 22-jumodu-l-oxirda yozib tugatgan. Bu to‘plamda: 14-betda shoir Xislatga she‘r bilan yozilgan bir xati (Asiriy Xo‘jandiyga nazira), 18-betda “Millat” nomida bir she‘ri (Tavallo she‘riga nazira), Haziniy, Muqimiy, Miskin, Zavqiy, Xo‘qandiy, Furqatiy, Kamiy taxalluslik shoirlarga muxammasi bor”<sup>17</sup>.

Dilafgor Toshkent adabiy muhiti ijodkorlari bilan faol hamkorlik qilgan. Uning uyida bo‘lib o‘tgan gap-gashtalarda Muqimiy, Kamiy, Xislat, Yusuf Saryomiy kabi shoirlar ishtirok etgan. Ikkinchi jahon urushi vaqtida Dilafgorning uyiga Muzayyana Alaviya va Zulfiyalar ham tez-tez kelib turgan. Ularning bu tashriflari davomida she‘riyat va ijod bilan bog‘liq suhbatlar ham bo‘lgani shubhasiz.

Birinchi bobning 1.2. paragrafi **“Dilafgor asarlarining tavsifi va tadqiqi”** deb nomlandi. Mulla Bo‘ri Dilafgordan bizgacha “Gulshani Dilafgor”, “Qissai Zufunun” va “Marsiyalar daftari” deb nomlangan asarlar yetib kelgan.

Dilafgorning “Gulshani Dilafgor” kitobiga shoirning 32 ta g‘azal, 2 ta murabba‘, 19 ta muxammas, 3 ta musaddas, 1 ta fard, 2 ta qasida va 1 ta chiston janridagi jami 60 ta she‘rlar kirgan. She‘rlar devon talabiga ko‘ra joylashtirilmagan. Kitob so‘ngida muallifning izohlashicha buning sababi muxlislarga o‘z ijod namunalarini tezroq yetkazish bilan bog‘liq bo‘lgan. Shoir asarning keyingi nashrida devon tuzish qoidasi va aruz vazniga e‘tibor berishini ma‘lum qilgan<sup>18</sup>.

Dissertatsiyada Dilafgorning tiliga ta‘sir qilgan turk tiliga xos jumla qurilishlarining tez-tez uchrashi uning jadidchilik harakatining faol ishtirokchisi bo‘lganini anglatadi. Masalan, ko‘pgina sherlarida *yurarda, bo‘yla, o‘lmaya, o‘ldig‘i, o‘lmaz, odoblig‘, verar, fora-fora* kabi turkcha so‘zlar shundan dalolat beradi.

Kitob Jalolobodlik Abdulhamid qori tomonidan ko‘chirilgan. Matn ikki ustun qilib mayda nasta‘liq xatida ingichka qalam bilan bitilgan. Sarlavhalar katta va yo‘g‘on (jaliy) qalamda bitilgan. Kitob so‘ngida Dilafgor she‘rlaridan keyin kotibning yetti banddan iborat murabba‘si, g‘azallari, uzoq yurtlarda yurib ota-onasining xizmatini qilolmayotganidan afsuslanib yozgan she‘riy maktubi havola qilingan.

To‘plamdagi lirik asarlar janri va hajmiga doir statistik ma‘lumotlar dissertatsiyada jadval ko‘rinishida keltirilgan.

To‘plamga kirgan she‘rlarning ba‘zilari ustiga sarlavha qo‘yilgan. Shuningdek, g‘azallarning aksariga “Dilafgor”, “Mavlono Dilafgor”, “Dilafgor avfa anhu”, Mavlono Dilafgor Fiskandiy avfa anhu” tarzida sarlavhalar qo‘yilgan. Ketma-ket muvashshah kelsa, birinchisi ustiga “Muvashshah” yozilib, keyingisiga “Va lahu ayzan muvashshah” deb qayd qilingan. Bular bilan birga “G‘alat” radifli g‘azalning radifi, “Surating” radifli g‘azalning

<sup>17</sup>Мўминжон Муҳаммаджон ўғли. Тошкент шоирлари. ЎзРФА Алишер Навоий номидаги Давлат адабиёт музейи Ўзбекистон шоир ва ёзувчилари архиви. Мўминжон Тошқин фонди. – Б. 402–405.

<sup>18</sup> O‘sha kitob, o‘sha bet.

“Surat” qismi sarlavha sifatida ko‘rsatilgan. Shashmaqom turkumlariga yozilgan asarlar o‘sha turkum nomi bilan qayd qilinadi. Masalan, “Gulyor” turkumiga bag‘ishlangan “Qani” radifli g‘azal mazkur turkumga kirishi sarlavhada qayd qilingan kabi havola berilgan. Chorgoh turkumiga kiruvchi “Arzim budur” deb boshlanadigan muxammas “Muxammasi chorgoh” deb ko‘rsatilgan. Shashmaqom uchun yozgan g‘azallari uning musiqa ilmidan yaxshi xabardor ekanini bildiradi.

Yana o‘z zamondoshlariga yozgan g‘azal va qasidalarini “Az jonibi Dilafgor qasida bajonibi Xislat eshon”, “Nolishi Dilafgor Fiskandiy aufa anhu” va “Millat” sarlavhalari ostida ham berilgan. Biror shoir g‘azaliga bog‘langan taxmislar “Muxammasi Dilafgor bar g‘azali Haziniy”, “Muxammasi Dilafgor bar g‘azali Muqimiy – hajv”, “Muxammasi Dilafgor bar g‘azali Miskin” kabi taxmislar uning adabiy muhit bilan yaqin aloqada bo‘lganini dalillaydi. Muallifning o‘z tab‘iga taalluqli muxammas va musaddaslar “Muxammas”, “Musaddas munojoti Dilafgor” tarzida berilgan.

Dilafgor she‘rlaridan 8 ta g‘azal, 2 ta muxammas 1960-yili chop qilingan “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasi 4-tom, 1-jildida 4 ta g‘azal va 2 ta muxammas, 1982-yili nashr qilingan “Asrlar nidosi” kitobiga kiritilgan<sup>19</sup>. “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasiga kirgan “Hajr aro holim ko‘rub bir lahza yorim indamas”, “Yordin, ey dil, sanga mehr-u vafo kam-kam bo‘lur” misralari bilan boshlanuvchi muxammaslar, “Asrlar nidosi” kitobidagi “Qonga to‘ldi yuragim, bir dilrabodin ayrilib”, “Dardi hajringg‘a kuydim, aylama, ey dilbar, iloj” misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari “Gulshani Dilafgor”ga kirmagan.

Ikki kitobdagi she‘rlar bir-birini takrorlamaydi. Shuningdek, bu she‘rlar “Gulshani Dilafgor”da uchramaydi. O‘z navbatida, noshirlar ham ularning qaysi manbadan olinganligini qayd qilmagan holda: “Quyida “Gulshani Dilafgor” asosida, shoirning bu kungacha ma‘lum bo‘lmagan she‘rlaridan namunalar keltiramiz”, – deb yozadi va “Gulshani Dilafgor”ga shoirning “Ushbu to‘plamga 23 g‘azal, 20 muxammas (1 muvashshah), 3 musaddas (1 tarje‘band), 1 chiston (topishmoq) va 2 fard kiritilgan”ligini bildiradi<sup>20</sup>. Xususan, shoirning “O‘zbek adabiyoti” xrestomatiyasidan o‘rin olgan

*“Qonga to‘ldi yuragim, bir dilrabodin ayrilib”,*

*“Dardi hajringg‘a kuydim, aylama, ey dilbar, iloj”* misralari bilan boshlanuvchi g‘azallari “Gulshani Dilafgor”da uchramaydi.

Dilafgorning Toshkentda yashaydigan inisi Bekmuhammadning o‘g‘li Shavkatga quloqqa taqadigan ovoz kuchaytirgich olib kelishini so‘rab yozgan,

*“Salom, ey Shavkatim, jondan azizim”*

misrasi bilan boshlanadigan she‘ri va hofizlar tomonidan kuylab kelingan “Ol xabar ul sarvinoz uyqusidin turganmikan” misrasi bilan boshlanuvchi g‘azali ham Dilafgor asarlari nashrlariga kirmagan. Muhammad Nosih bin Ali

<sup>19</sup> Ўзбек адабиёти. IV жилд. 1 китоб. Нашрга тайёрловчи: Каримов Ф. Ва б.к.: – Тошкент: Бадий адабиёт нашриёти, 1960. – Б. 303–312. Dilafgor she‘rlari. А.Абдуғафуров томонидан таууорланган.

<sup>20</sup> Асрлар нидоси. – Б. 162-169.

Muhammad domullo tomonidan tuzilgan “Bayoz ma’a gulshani ash’or”ga ham Dilafgor qalamiga mansub deb ko’rsatilgan bir necha she’r kirgan. Shoir bular bilan birga yana bir she’riy devon tartib bergan bo’lib, hozirgacha topilmagan.

Dilafgorning hazrat Alining o’g’li Muhammad Hanafiya va uning sevgilisi Zufunun o’rtasidagi voqealar tasviriga bag’ishlangan “Qissai Zufunun” asari ham hozirgacha yetib kelgan. “Qissai Zufunun” asarining ikkita qo’lyozmasi O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 4868 va 11940-inventar raqamlari ostida saqlanadi. Qo’lyozmalarning to’liq tavsifi dissertatsiyada berilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Dilafgor lirikasi manbalari va badiiyati**” deb nomlanib, uning dastlabki 2.1. paragrafi “*Mulla Bo’ri she’riyati manbalarining qiyosiy tadqiqi*”ga qaratilgan. Chunonchi, Dilafgorning hozirda 21 ta muxammasi ma’lum bo’lib, ularning o’n ikkitasi shoirning o’z ijod mahsuli. Qolgan to’qqiztasi esa, Muqimiyning “Sharob”, “Qiron kelsun” radifli, Miskinning “Arzimas”, Kamiyning “Aylab keling”, “Dog‘man, Zavqiyning “Arzirmu”, Haziniyning “Tong otg‘uncha” radifli, Abu Bakr Siddiqning “Xuz bilutfik, ya Ilahiy, man lahu zodun qalil”, Furqatning “Ya’ni turar Rashidxon qosh-u ko’zi firillab” misrali g’azaliga bog’langan taxmislardir.

Sharq adabiyoti tarixida taxmis bog’lovchi ijodkor hamma vaqt ham tanlangan g’azalning barcha baytiga javob yozavermasligi uchrab turadigan hol.

Dilafgorning ayrim zamondoshlari g’azallariga yozgan taxmislarida birinchi manbadagi matn o’zgargan hollar uchraydi. Chunonchi, Muqimiyning “Sharob” radifli g’azaliga bog’langan taxmisning uchinchi bayti yo‘q. Undan tashqari, birinchi baytda ham o’zgartirishlar mavjud<sup>21</sup>. Ushbu g’azalning birinchi misrasi matnshunos Q.Pardayevning tadqiqotida “Soqiyo, jome karam qil, qilmay istig‘no sharob” shaklida berilgan. Dilafgor taxmisida esa “Soqiyo, lutf ayla jomim, qilma istig‘no, sharob” ko’rinishida uchraydi. Bu haqida dissertatsiyada batafsil ma’lumot berilgan. Demak, uning qo’lida Muqimiy g’azalining boshqa variant bo’lgan.

“Gulshani Dilafgor” 2011-yilda kirill alifbosida chop etilgan. Ushbu nashrni 1914-yili Toshkentda Yakovlev, keyin 1916-yilda G’ulomiya matbaasida chop etilgan toshbosma nashrini o’rganish natijalari asliyat va nashr matni o’rtasida tafovutlar borligini ko’rsatadi. Dilafgor she’rlari nashri matnidagi bunday farqlarni ikki turga ajratish mumkin: 1) tovush va so‘zlarning o’zgarishi; 2) misra, bayt va bandlarning o’zgarishi. Matndagi bunday o’zgarishlar, katta-kichikligidan qat’i nazar, ba’zan asardagi tarixiylikka putur yetkazsa, ayrim hollarda badiiy shaklning buzilishiga ham sabab bo’ladi. Jumladan quyidagi:

*Bahaqqi hurmati hazrati Odam,  
Shish, Solih, Nuh, nabiyi mukarram (34).*

---

<sup>21</sup> *Qarang:* Пардаев К. У. Муқимий шеърятининг матн тарихи, таҳрири ва талқини. Филол. фан. д-ри дисс. – Тошкент, 2020. – Б. 127.

baytidagi Shis alayhissalomning oti Shish tarzida noto‘g‘ri berilgan. Shuningdek, odatda kotiblar tomonidan “va” bog‘lovchisi bilan bog‘lanadigan so‘zlar mazkur bog‘lovchini matni o‘quvchi ushbu jihatlarni bilishi inobatga olinib yozmasdan qoldirgan holatlar ham uchraydi. Yuqorida keltirilgan misolda xuddi shunday holat kuzatiladi. Bizningcha, matn mana bu tarzda tabdil qilinishi kerak edi:

*Bahaqqi hurmati hazrati Odam,  
Shis-u Solih-u Nuh-u nabiyi mukarram.*

Arab harfi transliteratsiyasi bilan bog‘liq holat alif maqsura yoki yo-alfiya bilan bog‘liq holatda uchraydi. Yana bir misol, quyidagi namuna matni asliyatda quyidagicha:

آلهى حرمت حضرت عيسى  
عاصى لارگا نصيب ايتگيل شفاعت (3)

Ushbu baytda aslida quyidagicha transliteratsiya qilinishi kerak edi:

*Iloho, hurmati hazrati Iso,  
Osiylarga nasib etgil shafolat.*

Chunki baytda alif maqsura orqali ritorik murojaat ifodalangan. “Ritorik murojaat – qadimgi davrlarda (Yunoniston–Rim) notiqlik san’atining muhim jihatlardan bo‘lib, adabiyotda uslubning xususiyligini ta’minlovchi omillardan biriga aylangan.

Ritorik murojaat mohiyati, uslubiy jilolari shoirning maqsadi va murojaat doirasining (Allohdan tortib, turli mavqedagi shaxslar va h.k.) tabiati bilan bog‘liq holda, rang-barang bo‘lishi mumkin”<sup>22</sup>.

Mazmunga ko‘ra, shoir Yaratgandan gunohkor bandalarning gunohini Iso alayhissalomning hurmatidan o‘tishni so‘ramoqda. Tabdilda matn quyidagi shaklda taqdim qilingan. Shu bois, alifi maqsuraning transliteratsiyadagi ko‘rinishi noto‘g‘ri berilgan. O‘z navbatida, bu holat ritorik murojaat ifodasining ham buzilishiga olib kelgan:

*Ilohiy, hurmati hazrati Iso,  
Osiylarga nasib etgil shafolat (34).*

Keltirilgan misolda ikki holatda xatolik uchraydi. Ularning biriga texnik xatolik sifatida qaralsa, ikkinchisi, o‘zbek tilining imlo qoidasiga mos kelmasligi bilan izohlanadi:

*Varna kelmas, deb Dilafgor rishtai ummedini,  
Kelsa bir kun ne ajab, ul oshnodin ayrilib (13).*

Birinchi qusurlik “kelmas” so‘zida ko‘rinadi. Ushbu bayt g‘azal matla’dan maqta’gacha lirik qahramon sevgilisining kelishidan umidini uzgani bilan bog‘liq holat tasvirlangan. Asliyatda ham so‘zkelmas shaklida berilgan. Umid<sup>23</sup> so‘zining imlosi esa, o‘zbek tilining imlo qoidasiga nomuvofiq tarzda

<sup>22</sup> Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: “O‘zbekiston” НМИУ, 2014. – Б. 150.

<sup>23</sup> Qarang: Ўзбек тилининг қисқача имло луғати. – Тошкент: Фан, 1962. – Б. 200.

Umed tarzida yozilgan. Ushbu o‘rinda vazn talabiga ko‘ra yozilganda ham ummid ko‘rinishida berilishi maqsadga muvofiq bo‘lardi. Dissertatsiyada bunday matniy nomuvofiqliklar ko‘plab misollar orqali ochib berilgan.

Bobning 2.2. paragrafidagi **“Dilafgor she‘rlarining mavzu ko‘lami va badiiyati”** masalasi o‘rganilgan. Dilafgor she‘riyatini tahlili uning ijodida tasavvufiy, diniy-ma‘rifiy, ijtimoiy, ilm-ma‘rifat, sevgi-muhabbat mavzulariga bag‘ishlangan lirik asarlar mavjudligini ko‘rsatadi. Dilafgor ijodida ham aksar shoirlar kabi she‘riy maktublar mavjud va bu maktublarni<sup>24</sup> P.Qayumiy “Tazkirayi Qayyumiy”da Dilafgorning mazkur turkumdagi she‘rini “Salomnoma” deb atagan<sup>25</sup>.

I.Abdullayev X–XI asrlar Movarounnahr arabiy navis adiblari ijodiga baho berib, ularda uchraydigan bir qancha janrlarni sanab o‘tadi. Ular qatorida ixvoniyotga ham to‘xtalgan. Xususan, bu to‘g‘rida: “Ixvoniyot – birodarlik, do‘stlik haqidagi she‘rlar. Bu ham arab she‘riyatida qo‘llangan janrlardan biri (75, 2-j, 136). Ixvoniyot arab adabiyotida mustaqil qasida sifatida ham ayrim she‘riy parchalar holatida ham uchraydi. Bunda shoir o‘zining biror do‘stiga she‘r bilan murojaat qilib, o‘zining sadoqati, beg‘araz do‘stligi, chin muhabbati, samimiy xayrxohligini izhor etadi.

Dilafgor ijodida nazmda yozilgan she‘riy nomalar uchraydi. Ularning bittasi “Az jonibi Dilafgor qasida bajonibi Xislat eshon” sarlavhasi ostida, ikkinchisi “Duoyi salom” nomi bilan berilgan. Ikkala she‘rning ba‘zi o‘rinlari birinchi bobda tahlilga tortildi. Aytish mumkinki, ikkala she‘r orqali Dilafgorning qanday muhitda yashab, ijod qilgani, kimlar bilan muloqotda bo‘lganini bilish mumkin. Shu bilan birga, uning dunyoqarashi va ijodining shakllanishiga ta‘sir o‘tkazgan shaxslarning kimligidan ham xabar topish mumkin.

A.Mo‘yudinovanning bildirishicha: “XIX asr oxiri XX boshlari o‘zbek milliy uyg‘onish davri adabiyotidagi muvashshahchilik nafaqat, Qo‘qon, Toshkent, Xorazm adabiy muhit vakillari, balki Turkistonning barcha hududlarida ijod qilgan shoirlarga ham xos edi”<sup>26</sup>. Tadqiqotchi shuningdek, mazkur davr Toshkent shoirlaridan Miskin, Xislat, Sidqiy, Kamiy, Almaiy, Tavallo, Avloniy kabilarning muvashshah janridagi she‘rlari borligini ko‘rsatib o‘tgan. Bular qatoriga Dilafgorni ham muvashshah bituvchi shoir sifatida keltirish o‘rinli. “Gulshani Dilafgor”da Abdullohjon, Dorobxon, Nabijon, Avazxon, Asror, Dorojon, Qorixon, Doqojon, Nazirjon nomlariga yozilgan muvashshahlar mavjud. Oldingi paragrafdagi tahlilga tortilgan maqta‘si yo‘q bo‘lgan Bo‘ta nomiga yozilgan muvashshahni ham qo‘shadigan bo‘lsak, shoirning ushbu janrda **o‘nta** she‘r bitgani ma‘lum bo‘ladi. Dilafgor asosan g‘azal janridagi she‘rlar tarkibidagi muvashshahlarni bitgan.

<sup>24</sup> Пўлотжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. – Тошкент, 1998. 2-жилд. – Б. 425.

<sup>25</sup> Пўлотжон домулла Қайюмий. Тазкираи Қайюмий. – Б. 379.

<sup>26</sup> Muypdinova A. O‘zbek milliy uyg‘onish adabiyotida muvashshahchilik: an‘ana va individuallik. Filol. fan. b. fals. dok (PhD) diss. – Toshkent, 2023. – B. 18.

Dilafgor Yaratganga chin e'tiqod qilish barobarida o'z gunohlarini kechirishini so'rab munajatlar bitgan. Bunday g'azallarni munajat g'azallar turkumiga kiritish mumkin. Dissertatsiyada ko'plab misollar orqali ochib berilgan.

Dilafgor she'riyatida bayon qilayotgan qarashlarining ta'sirchanligini oshirish, dalillash va badiiyatini ta'minlash uchun Sharq mumtoz adabiyotida keng qo'llangan iqtibos, kalomi jomi', ruju, kabi san'atlardan faol istifoda etadi.

Dissertatsiyaning **“Dilafgor “Qissai Zufunun” asarining tuzilishi va matniy qiyosi”** nomli uchinchi bobining 3.1. paragrafi *“Qissai Zufunun” manbalarining qiyosiy tahlili*”ga qaratilgan.

Respublika fondlarda bu mavzuga oid xalq qissalari yoki muallifi qayd qilinmagan dostonlar ko'plab uchraydi. Masalan, O'zRFA Sharshunoslik instituti asosiy foididagi **2067**-inventar raqamli qo'lyozma qissaning nazmda yozilgan varianti mavjud bo'lib, u Basmalladan keyin Yaratganga hamd va chahoryorlarni maqtovchi baytlar bilan boshlanadi. Qissa matnidan bu she'riy asar Abdulloh ibn Abbos tomonidan naql qilingani ayon bo'ladi.

Fondagi **639**-inventar raqamli qo'lyozma qissaning nasrdagi shakli. Qissa “Bedon asadallohu fiddorayn bilgil va ogoh bo'lg'il bu qissadur biroz g'aroyib va ajoib qissalarni shirini va shirin so'zlarni a'losi. Bu qissani Abdulloh ibn Abbos (r.a.) naql qildilar, to inqirozi olamga yodgor qoldi, ya'ni yangi imom Hanifa Zufunun birla va yangi hazrat Ali karramallohu vajhahularni sababidin ba'zi kofirlar bira vallohul hodi ila tariqil mustaon. Ammo roviyoni axbor va noqiloni osor va muhaddisoni ko'han andog' rivoyat qilibdurlarkim, kunlardin bir kun imom Muhammad Hanafiya orzui shikori ohu qilib...” deb boshlangan va voqealar rivoji asar qahramonining ov vaqtida boshidan kechirgan voqealar bayonining ketma-ketligi bilan davom etadi.

**6134 va 7589**-raqamli qo'lyozmada qissa “Qissayi Zifnun Muhamad Hanafiya birla Zifnuni jang qilg'oni bilinglar va ogoh bo'linglar. Bu qissa andog' qissadurki, biroz ajoyib va g'aroyib qissalarni shirini va shirin yuzlilarning nigini. Bu qissani Abdulloh ibn Abbos naql qilibdurlar. Qissa boshlanishi: “Ammo roviylar andog' rivoyat qilurlarki, kunlardan bir kun imom Muhammad Hanafiya orzuyi shikor qilib Hazrat Abubakr siddiq (r.a.) ni Ismoil va Qosim nomli o'g'illari va o'z xizmatkorlari Muqbil bu uch kishini o'zlarig'a hamroh qilib, asbob jabduqni muhayyo qilib, sahroga yuzlandilar” tarzida boshlanadi. Fondagi **4868, 4600, 7114, 6005, 6134, 392, 4633, 391**-raqamli manbalarda ayni mavzudagi asarlar mavjud bo'lib, ular yuzasidan ayrim mulohazalar dissertatsiyada keltirilgan.

“Qissai Zufunun” turkumidagi qissalarda Zufununning oti Zig'nun tarzida ham uchraydi. Unda Muhammad Hanafiya va Eram shohining qizi Zig'nun haqida hikoya qilinadi. Shuningdek, muallif Zig'nun nomi aslida “Lug'atnomayi Dehxudo”, “Lug'ati fors”, “Burhoni qote” kabi manbalarda Zifunun shakli keltirilgan. Qissada Eram shohining Zig'nun ismli qizi otasidan Muhammad Hanafiyaning jasorat va shijoatlari haqida eshitib, u bilan jang qilishga ishtiyoqmand bo'lgani tasvirlangan.

O‘zbek adabiyotida Islom tarixidagi mashhur shaxslar, xususan, Hazrat Ali faoliyatiga bag‘ishlab asarlar yozgan ijodkor sifatida Nurmuhammad Andalib (1712–1780) nomini ko‘rsatish mumkin. Hazrat Ali va Muhammad Hanafiya bilan bog‘liq qissalar yaratgan ijodkorlardan biri Sobir Sayqaliy Hisoriydir (1730–1798). Andalib ijodida “Zayn ul-arab” va “Bobo Ravshan” qissalari Hazrat Ali shaxsiyati atrofida shakllantirilgan. Sayqaliyning “Qissayi Sayqaliy” asarida Hazrat Ali bag‘ishlangan mavzular mavjud. Shunday bo‘lsa-da, mazkur ijodkorlar merosida Hazrat Ali va Muhammad Hanafiya faoliyatiga oid o‘rinlar uchrasa-da, ular ichida “Qissai Zufunun” syujeti asosida yaratilgan doston mavjud emas.

Dilaforning “Qissai Zufunun” asari nazmda bitilgan. Asarning boshlanishida muallif obidani forsiydan turkiyga tarjima qilganini aytib o‘tgan. Qissa o‘ttiz bo‘limdan iborat. Har bir bo‘lim bir-biri bilan Muhammad Hanafiyaning Zufununga bo‘lgan munosabatini belgilovchi voqealar bilan bog‘lanadi. Shuningdek, har bir bo‘limda yangi bir voqea bayon qilinadi. Dissertatsiyada ushbu jihatlar batafsil tahlil tortilgan.

Bobning 3.2. *paragrafi* “Qissai Zufunun” va uning qo‘lyozma manbalari tadqiqi” deb nomlangan. Bugungi davrda Dilafgor “Qissai Zufunun”ining uchta qo‘lyozma nusxasi ma‘lum. Ulardan ikkitasi O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 4868 va 11940-raqamlar ostida saqlanadi. “Qissai Zufunun”ning yana bir nusxasi Rossiya FA Sharqshunoslik instituti fondida S 1533-(Nov 1132) raqami bilan saqlanadi. Rossiya FA Sharqshunoslik instituti fondida S 1533- (Nov 1132) raqami bilan saqlanadigan qo‘lyozmani tadqiqot doirasiga jalb qilishning ilmkoni bo‘lmadi. Faqat O‘zRFA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti asosiy fondida 4868 va 11940-raqamli qo‘lyozmalar asosida ikkala qo‘lyozmadagi matniy farqlar tahlil qilindi. Jumladan, 11940-raqamli qo‘lyozmada matn quyidagi asarning tasnifi sababiga oid:

*Yetolmas forsiy tilga har qayu nos,  
Bu boisdin turkiyga ayuhannos.*

bayti bilan boshlanadi. Natijada asar boshlanishidan o‘n besh bayt tushib qolgan, hamd, na‘t va chahoryorlar madhiga bag‘ishlangan o‘rinlar yetishmaydi.

